

BOSHLANG'ICH TA'LIM MAKTABLARINI TASHKIL QILISH LOYIHASI





Boshlang'ich ta'lim maktablarini tashkil qilish loyihasi

F.Rashidov, – Toshkent, 2024.

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi, hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi, O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y, Babamuhamedov A.A. va Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari.

Taqrizchi:

Rizaev N.K - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori.

Tahrirchi:

Narxujayeva D.B - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfası hisoblanadi.**

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkiloti (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, undan 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura), hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyiha menejmenti va marketingi, loyihaning texnik jihatları, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyiha rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB - 2024

© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmas, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat loyihalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi loyihalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu loyihalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta loyihalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvidagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariyasi.....	8	5. Infrastruktura.....	28
1. Loyiha maqsadi.....	10	6. Marketing konsepsiyasi.....	30
2. Loyiha tashabbuskori.....	12	7. Xizmat ko'rsatish rejasi.....	34
3. Loyiha strategiyasi.....	14	8. HR rejasi.....	36
4. Xizmat ko'rsatishni tashkil qilish.....	16	9. Moliyaviy reja.....	40
4.1. Maktab haqida.....	17	9.1. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari.....	43
4.2. Xizmat ko'rsatish haqida.....	21	10. Xulosalar.....	46
4.3. Jihoz va uskunalar.....	26	11. Loyihasining hisob-kitob qismi.....	48

MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYASI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaning farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potensial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisoblaganda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.



1. LOYIHA MAQSADI



1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim maktablarini tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining ushbu ta'lim turiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari yaratish, mamlakatimiz yoshlariga sifatli ta'lim olish uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun, boshlang'ich ta'lim maktablarini tashkil etish va investitsion davrda xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish maqsadida, umumiy qiymati 1,2 mlrd. so'm miqdorida investitsiya (bundan 750 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish rejalashtirilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Boshlang'ich maktab jixozlari to'plami	750 000	750 000	100%		0%
Binoni ta'mirlash ishlari	276 000		0%	276 000	100%
Jami asosiy vositalar	1 026 000	750 000	73%	276 000	27%
Boshlang'ich maktab tashkil etish uchun ruxsatnomalar olish	5 000		0%	5 000	100%
Aylanma mablag'lar	100 000		0%	100 000	100%
Investitsiyon davrdagi kredit foizlari	69 000		0%	69 000	100%
Jami	1 200 000	750 000	62,5%	450 000	37,5%

Loyiha tashabbuskoriga ushbu loyihani amalga oshirish xalqaro standartlarga javob beradigan sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyatiga boshlang'ich ta'lim maktablarini tashkil etish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbikorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida milliy va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki boshlang'ich ta'lim sohasida ham tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.



3. LOYIHA STRATEGIYASI



3. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda boshlang'ich ta'lim maktablarini ochishni tashkil etishdan iborat.



4. XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL QILISH



4.1. MAKTAB HAQIDA

Maktab — o'qituvchi rahbarligida yosh avlodga ma'lumot beriladigan va tarbiyaviy ishlar olib boriladigan o'quv tarbiya muassasasi. O'zbekistonda maktab, asosan, davlat mulki bo'lib, unda o'qish bepul. Shu bilan birga oliy o'quv yurtlarida o'qish qisman shartnoma asosida ota-onalar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan „Ta'lim to'g'risida“gi qonuni, hamda „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ da belgilab berilganidek, O'zbekiston maktablarida ta'lim o'quvchilarga ona tilida olib boriladi. Barcha maktablarda o'quvchi va talabalar uchun uzluksiz tarzda ta'limning quyi bosqichidan yuqori bosqichiga o'tish ta'minlangan. Boshlang'ich va o'rta maktablarda ta'limning asosiy shakli — dars, o'rta maxsus va kasb-hunar, hamda oliy maktablarda — leksiya.

Maktabni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- a) beriladigan bilimning harakteriga ko'ra — umumiy va professional;
 - b) bilimning ko'lamiga ko'ra — boshlang'ich (yoki quyi), o'rta, oliy;
 - v) kimning qaramog'ida bo'lishiga qarab — davlat, munitsipal (jamo) va xususiy;
 - g) o'quvchilar jinsiga ko'ra — aralash (har ikki jinsdagi o'quvchilar uchun), ayollar, hamda erkaklar maktabi;
 - d) dinga nisbatan — dunyoviy va diniy (konfessional);
 - e) bolalar maktabda bo'lish vaqtiga qarab — qatnab o'qiydigan maktab va tunab qolinadigan maktab (pansion, internat va b).
- Ilk maktablar qadimgi Sharq mamlakatlari (Xitoy, Bobil, Misr va boshqalar)da paydo bo'lgan. Bu mamlakatlardagi ibodatxonalarda koinlar va kotiblar maktablari bo'lgan. Yevropada dastlabki maktablar taxminan miloddan avvalgi VI asrda Yunonistonda, miloddan avvalgi IV asrda Qadimgi Rimda vujudga kelgan.

O'rta Osiyoda boshlang'ich ta'lim beradigan maktab maktabxona deb nomlangan. O'rta Osiyoda maktablar tipidan yana madrasa, qorixonani ko'rsatish mumkin. Madrasa o'rta va oliy tipdagi maktab hisoblangan; qorixonada Qur'onni tilovat qilish o'rganilgan.

Turkistondagi rus aholi mahalliy aholiga nisbatan maktablar bilan yaxshi ta'minlangan. 1876-yildan gimnaziya, real maktab, muallimlar seminariyasi va boshqa xil maktablar ochilgan. Rus maktablarining ayrimlarida mahalliy millat bolalari ham o'qigan. XIX asr oxirlarida mahalliy millat bolalari uchun rus-tuzem maktablari tashkil etila boshladi. Bu maktablar, asosan, chorizmning mustamlakachilik siyosatiga xizmat qilgan bo'lsada, o'lkada ilg'or o'qish usullarining yoyilishida ma'lum rol o'ynadi. Sovet tuzumi davrida maktablardagi ta'lim jarayonining o'zi va o'qitish uslubiyatidagi har xil kamchiliklar oqibatida bilim berishda yuzaga kelgan nodemokratik, hamda jamiyat uchun zararli muhit shunga olib keldiki, o'quvchilarda mustaqil fikrlash rivojlanmay qoldi.

O'zbekiston respublikasi mustaqillikka erishgach, maktablarning moddiy texnika bazasini rivojlantirish, ularni ilmiy metodik jihatdan ta'minlash sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekistonda maktab ishlari yuksak sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Maktab atamasi, shuningdek, rangtasvir, haykaltaroshlikka, o'ziga xosligi aniq ifodalangan shahar yoki ma'lum viloyat me'morligiga, u yoki bu darajada aniq, uslubiy va tarixiy chegaralariga ega bo'lgan butun bir mamlakatning milliy san'atiga nisbatan ham qo'llanadi (masalan, Hirot miniatyura maktabi).

Boshlang'ich maktab — bolalarga boshlang'ich umumiy ma'lumot beradigan umumta'lim o'quv tarbiya muassasasi. Uning vazifasi o'quvchilarda yozish, o'qish, hisoblash malaka va ko'nikmalarini hosil qilish, tabiat va jamiyat haqida ilk bilimlar berish, xulq odobga o'rgatishdir.

Hozirgi O'zbekiston hududida dastlabki boshlang'ich maktab — maktabxonalar arab xalifaligi tomonidan O'rta Osiyo yerlari bosib olingandan keyin (7-asr) mahalliy xalq va ularning bolalarini musulmon ruhida tarbiyalash maqsadida ochilgan. Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olinganidan keyin rus amaldorlari va harbiylarining bolalari uchun 1869-yil Toshkentda dastlabki rus boshlang'ich maktabi ochildi. Turkistonda mahalliy aholi bolalari uchun 19-asr oxirlarida ochilgan rustuzem maktabi ham boshlang'ich maktabdir. 1900-yildan O'zbekiston hududida "jadid maktabi" nomi bilan yuritilgan yangi usul maktablari ham ish boshlagan. Bu maktablar Turkiston mahalliy xalqlar milliy maktablarining kurtaklari bo'lgan.

Yangi usul maktablari ham asosan 1-4 sinfdan iborat boshlang'ich maktab hisoblangan. 1917-yil oktabr to'ntarishidan keyin, 1918-yil 13 dekabrda Turkiston maorif xalq komissarligi qarorigabinoan rustuzem maktablarixalq maktablariga aylantirildi. 1922-yildan tayyorlov (yariminchi) sinfdan keyingi 1-3 sinflardan iborat maktablar 1-bosqich maktab, ya'ni boshlang'ich maktab hisoblangan. 1918-24-yillarda hozirgi O'zbekiston hududidagi barcha milliy maktablar 1 bosqichli bo'lgan. Boshlang'ich maktab soni 1918-yilda 992, 1919-yilda 1847, 1921-yilda 2022, 1922-yilda 1239, 1923-yilda 1007, 1924-yilda 1271 ta bo'lgan. 1930-1931 o'quv yilidan O'zbekistonda umumiy majburiy boshlang'ich ta'lim joriy etilishi munosabati bilan boshlang'ich maktablarda ta'lim muddati 4 yil qilib belgilandi. 1969-1970 o'quv yilidan rus maktablarida, 1970-1971 o'quv yilidan o'zbek maktablarida 3 yillik boshlang'ich ta'limga o'tildi. Shu yillardan boshlab boshlang'ich maktabning mavqeyi va ahamiyati tubdan o'zgardi; umumiy ta'limning mustaqil, tugal bosqichi degan xususiyatini yo'qotib, fan asoslarini izchil o'rganishga tayyorlanish bosqichi bo'lib qoldi. 1991-1992 o'quv yilidan O'zbekiston respublikasida boshlang'ich maktablarda yana 4 yillik boshlang'ich ta'limga o'tildi.



“Ta’lim to’g’risida”gi qonun (1997-yil 29 avgust)da boshlang’ich maktab ta’limining yangi mazmuni belgilandi. 2000-2001 o’quv yili boshida O’zbekistonda 207 boshlang’ich maktab bo’lib, ularda 30684 o’quvchi ta’lim oldi

Boshlang’ich maktab yoshining chegaralari 7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha. Bu vaqtda bola boshlang’ich maktabga borishni boshlaydi. Bu ham bola organizmining faol biologik rivojlanishi davri. Muhim o’zgarishlar tananing asab tizimi, skelet va mushak tizimlariga, ayniqsa ichki organlarning rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Yana bir xususiyat boladagi axloqiy tuyg’ularning jadal rivojlanishi bilan bog’liq: do’stlik hissi, sinf uchun javobgarlik, boshqalarning qayg’usiga hamdardlik, adolatsizlikdan g’azablanish va boshqalar. Shu bilan birga, ular aniq ta’sirlar, ko’rilgan misol va topshiriqni bajarishda o’z harakatlari ta’siri ostida shakllanadi.

4.2. XIZMAT KO’RSATISH HAQIDA

Boshlang’ich maktab tuzilishi

Boshlang’ich maktab - majburiy umumbashariy ta’limning birinchi bosqichi bo’lib, u yerda bolalar boshlang’ich ta’lim oladilar (ona tili, matematika, shuningdek, tabiat va jamiyat haqidagi asosiy bilimlar). Boshlang’ich sinflar to’rt yillik o’qishni o’z ichiga oladi (1-4-sinflar).

Ta’limning propedevtik bosqichi – maktabgacha tayyorgarlik (tayyorlov guruhi o’quvchilari uchun tayyorgarlik kurslari). Bunday bolalar bog’chasi guruhlari nol sinflari deb ataladi. Bunday sinflardagi bolalar uchun haftada 2 marta, har kuni ikkita dars tashkil etiladi: savodxonlik (o’qish va yozish), matematika va tashqi dunyo. Bunday fan o’quv mashg’ulotlariga nafaqat Akademik gimnaziyaning bolalar bog’chalariga qatnaydigan bolalar, balki ota-onalari bolasini Akademik gimnaziyaning boshlang’ich sinfida qo’shimcha o’qitishni rejalashtirgan boshqa bolalar muassasalariga qatnaydigan bolalar ham qatnashishi mumkin.

Har yili sentabr oyining o’rtalarida bo’lajak birinchi sinf o’quvchilarining ota-onalari uchun ibratli ota-onalar yig’ilishlari o’tkaziladi. Darslar 1-sentabrda boshlanadi va 31-mayda tugaydi.

1-sinf

Bolani 1-sinfga qabul qilish suhbat asosida olti yarim yoshga to’lganda mumkin bo’ladi.

Boshlang’ich maktabda ta’lim “Perspektiv” dasturi bo’yicha olib boriladi. 1-sinf dasturida Davlat Ta’lim Standartining barcha majburiy fanlari, shuningdek, gimnaziya komponentining bir qator fanlari mavjud bo’lib, bu bolalarning o’quv jarayoniga qiziqishini sezilarli darajada oshiradi.

Charchoq va ortiqcha ishlarning oldini olish uchun 1-sinfidagi bolalar uchun o’n kunlik qo’shimcha ta’tillar mavjud bo’lib, ular fevral oyiga to’g’ri keladi, bu eng uzun akademik chorak (uchinchi) oyidir.

Kichik boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun maktabning shtat jadvali rivojlanish psixologiyasi bo'yicha bilimga ega bo'lgan va bolalar uchun qiziqarli va turli xil bo'sh vaqtlarini tashkil etishga qodir bo'lgan qo'shimcha o'qituvchi-tashkilotchini o'z ichiga oladi.

Har 3 soatda 1-sinf o'quvchilari zamonaviy sport anjomlari, dam olish maskanlari, ko'ngilochar maskanlar bilan jihozlangan sport maydonchasiga boradilar.

2-4 sinflar

2-4 sinflarda ta'lim boshlang'ich maktab o'quv rejasidagi fan dasturlari bo'yicha olib boriladi. Haftalik dars yuklamasi 23 soat.

O'quv rejasining ushbu toifasiga quyidagi fanlar kiradi: ona tili, adabiy o'qish, ingliz tili, matematika, atrofimizdagi dunyo, tasviriy san'at, texnologiya, musiqa, jismoniy tarbiya, diniy madaniyat asoslari va dunyoviy axloq (4-sinfda).



O'qitish an'anaviy dasturlarning bir qismi bo'lgan va bir qator afzalliklarga ega "Perspektiv" dasturiga muvofiq olib boriladi. "Perspektiv" o'quv majmuasi uchun o'quv materialini qurish tizimi har bir o'quvchiga yangi narsalarni kashf qilish, o'rganishga qiziqishni saqlab qolish va rivojlantirish imkonini beradi. Darsliklarda topshiriqlar bolaning bilim faolligi, qiziqishi va mustaqil ravishda o'rganish ehtiyojiga aylanadigan shaklda taklif etiladi. "Perspektiv" o'quv majmuasining asosiy tamoyillari: insonparvarlik, tarixiylik prinsipi, muloqot va ijodiy faoliyat prinsipi. O'quv-uslubiy majmua (UMC) elektron o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlangan, bu boshlang'ich maktab uchun juda muhim, chunki har bir sinf xonasi interfaol doska yoki katta plazma panel bilan jihozlangan bo'lib, ularda o'quv kompakt disklaridagi o'quv materiallari proyeksiya qilinadi. Bugungi kunda "Perspektiv" o'quv majmuasi Davlat Ta'lim Standartining majburiy ro'yxatiga kiritilmagan qo'shimcha darsliklar bilan to'ldirildi. Ana shunday o'quv qo'llanmalar qatorida boshlang'ich sinf o'quv jarayonida ham qo'llaniladigan "Informatika" darsini alohida qayd etish mumkin.

Boshlang'ich maktab dasturlarining predmeti va mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qib o'rganishning sifat jihatidan yangi darajasiga ko'tarilish imkonini beradi: maktab o'quvchilarining dunyoqarashini kengaytirish va kurslarning asosiy mavzulari bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish, o'quv mashg'ulotlariga barqaror qiziqishni rivojlantirish. O'zlari o'rganadigan fanlar, ijodiy, tadqiqot xarakteridagi muammolarni hal qilish, rivojlanayotgan texnologiyalar doirasida ishlaydigan gimnaziya uchun muhim bo'lgan loyihalash vazifalarini bajarish, shuningdek, standart vaziyatlarda bilimlarni mustaqil egallash va ularni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish.

Boshlang'ich maktabning dasturlari eng yaxshi o'qituvchi va metodistlari tomonidan umumiy pedagogika, pedagogika va ta'lim tarixi, shuningdek, boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi fanlari olimlarining samarali ko'magida ishlab chiqilgan.

Boshlang'ich maktabning mazmuniy asosini turli ta'lim yo'nalishlari: filologiya, matematika va informatika, tabiatshunoslik, san'at fanlari tashkil etadi.

Ingliz tili

Boshlang'ich maktabda ingliz tilini o'rganish ta'lim faoliyatining ustuvor yo'nalishi bo'lib, unga katta e'tibor beriladi. O'quv rejasining komponentida 1-sinfdan boshlab chet tilini o'rganish nazarda tutilmaganiga qaramay, ushbu fan maktabning gimnaziya komponentiga o'qishning birinchi yilidan boshlab har bir hafta uchun 7 soat miqdorida kiritilgan. 2-sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rganish uchun bir xil miqdordagi soatlar taklif etiladi. 3-4-sinf o'quvchilarning o'quv rejasida haftasiga 8 soat ingliz tiliga ajratilgan.

4-sinfda bolalar fan dasturini o'zlashtiradilar. Tabiatshunoslik tushunchalari ingliz tilida o'qitiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tildagi fanni o'rganishga bunday yondashuv o'rta va yuqori bosqichlarda ingliz tilida bir qator fanlarni o'rganishning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi.



Boshlang'ich ta'limda metodlar

Boshlang'ich ta'limda metodlar orqali darsni tashkil qilish bilan o'quvchining fikrlash qobiliyati o'sadi, onglik darajasi kuchayadi. O'quvchining bilim va ko'nikmalarini oshirish o'qituvchining faol tayyorgarligiga bog'liq. Metodlar bilan ishlash har bir o'qituvchining uslubi hisoblanadi. Bilim olish uni takomillashtirish uchun har bir o'qituvchi va o'quvchi kuchli bilim olishga intiladilar.

Boshlang'ich sinfda qo'llaniladigan metodlar bir talay hisoblanadi. Ular sirasiga quyidagilar kiradi: baliq skeleti, suhbat, klaster, krossvord, sinkveyn, minemonika, klassifikatsiya, svetafor, anogramma, koptok, yelpig'ich. Ushbu metodlar bilan tashkil qilingan dars albatta samarali bo'ladi. Har bir metod o'ziga xos vazifaga ega. Bola mavzuni har xil metodlar bilan o'rganganda o'zlashtirishi oson bo'ladi, nafaqat bolaning dars jarayonidagi faoliyati oshadi. Metodlar bilan birgalikda ishlashda o'qituvchining roli juda katta bo'ladi. Metodlar bilan ishlash dars samarasi uchun balki, zerikarli darsning yo'qolishiga olib keladi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari har doim bir xil dars tashkil qilinishining bola uchun zerikarli bo'lishi, o'quvchida bilim olishga qiziqishini susaytiradi. Endi metodlarga nazar tashlaymiz

Baliq skeleti metodi ta'rifi: muammoni qo'yish va hal qilishning mazkur modeli bir qator muammolarini ta'riflash va yechib ko'rishga imkon beradi. Foydalanish doiralari: tabiiy va aniq fanlarda, muammoli ta'lim berish uslubidan foydalanganda, afzalliklari: ushbu sxema muammolarining o'zaro bog'liqligi, ularning kompleks xususiyatlarini aks ettiradi. Muammolarni ifodalashda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Sinkveyn metodi. Sinkveyn fransuz tilidan olingan bo'lib, "5 qator" ma'nosini bildiradi. Sinkveyn – ma'lumotlarni sintezlashga yordam beradigan qofiyalanmagan she'r bo'lib unda o'rganilayotgan tushuncha to'g'risidagi axborot yig'ilgan holda o'quvchi so'zi bilan turli variantlarda va turli nuqtai nazar orqali ifodalanadi.

Klaster metodi. O'quvchining mantiqiy fikrlashi, umumiy fikrlash doirasini kengaytirishi mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga qaratilgan.

4.3. JIHOZ VA USKUNALAR.

Sinf xonalarining tuzilishi

Boshlang'ich maktabdagi o'quv jarayoni zarur atributlar bilan maxsus jihozlangan binolarda amalga oshiriladi:

- sinf xonalari (balandligi sozlanadigan maktab stol va stullar, o'quv jihozlarini saqlash uchun shaxsiy xonalari bo'lgan sinf shkafi, kitob javon, bo'r, magnit doska, markerli doska, interfaol doska - plazma, qo'l yuvish uchun joy, ko'rgazmali mavzu yordamchi vositalar);
- ingliz tili o'quv xonasi (stollar, bo'rli magnit doska, markerli doska, interaktiv doska - plazma, ko'rgazmali qurollar);
- sport zali (sport anjomlarini, basketbol taxtasi(lar), katta devor panjaralari, skameykalar, turli sport anjomlarini saqlash uchun jihozlangan javon);
- o'yin xonasi (divanlar va puflar, kitob daraxtlari shaklidagi kitob javonlari, stol o'yinlari va qo'l mehnati uchun stollar, bolalar fantastika to'plamlari, plazma, stereo tizim, noutbuk, gilam qoplamasi);
- musiqa xonasi (audio va video uskunalar, kompyuter, dinamiklar, musiqa asbobi - elektron pianino);
- bo'sh vaqtni tashkil qilish uchun zal (stollar, divanlar, stol o'yinlari, bolalar fantastikasi);
- ovqat xonasi (6-10 kishilik ovqatlanish stollari, shaxsiy stollar, barcha kerakli idishlar, idishlarni yuvish mashinasi, oziq-ovqat isitgichlari, sovutgich uskunalari va boshqalar);
- yechinish xonasi (individual shkaflar, poyabzallarni saqlash, nometall);

- suzish havzasi, sauna (agar bino loyihasida nazarda tutilgan bo'lsa);
- shaxsiy kabinalar bilan jihozlangan bolalar hojatxonalari (lavabolar, nometall);
- bolalar sport maydonchasi (sport anjomlari, o'yin maydonchalari);
- tibbiyot xonasi.

Har bir o'qituvchi o'quv jarayonida o'quv xonalari va zallarda interfaol vositaga ulangan shaxsiy noutbukdan foydalanadi. Ro'yxatda keltirilgan barcha binolar kvars lampalar bilan jihozlangan bo'lib, ular jadval bo'yicha kuniga 2 marta ishlatiladi.



5. INFRASTRUKTURA



5. INFRASTRUKTURA

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan bino ijaraga olinadi, hamda ushbu binoni boshlang'ich ta'lim maktablarini uchun jihoz va uskunalar binoda joylashishi uchun moslashtirish zarur bo'ladi.

Ushbu loyihani amalga oshirish uchun binolar va joy tanlash alohida e'tibor talab qiladi. Boshlang'ich ta'lim maktablarini odamlar gavjum, hamda kelib-ketish hamma uchun qulay bo'lgan joyda tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday joylar o'quvchilar uchun qo'shimcha qulaylik bo'lsa, yana yangi o'quvchilarni jalb qilish uchun bepul reklama vazifasini ham bajaradi.

Xizmat ko'rsatishni tashkil etishni faqat barcha xavfsizlik talablari bajarilgan taqdirda amalga oshirish mumkin. Bundan tashqari, ushbu bino 220V li elektr energiyasi va suv ta'minoti bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.



6. MARKETING KONSEPSIYASI



6. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni, hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.



Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- iste'mol bozori
- sanoat bozori.

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bulgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'plab mahalliy xususiy boshlang'ich ta'lim maktablari faoliyat ko'rsatmoqda.

Assortiment nomi	O'lchov birligi	Sotish narxi (so'm)	
		Loyiha tashabbuskorida	Raqobatchilarda
Bir nafar o'quvchi uchun (bir oylik to'lov)	dona	2 500	2 900

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal xizmat ko'rsatishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Bir nafar o'quvchi uchun (bir oylik to'lov)	dona	2 000	2 500	5 000 000



7. XIZMAT KO'RSATISH REJASI



7. XIZMAT KO'RSATISH REJASI

Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori yuridik shaxs sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Boshlang'ich ta'lim maktablarini ochishni tashkil etish uchun jihoz va uskunalar yetkazib beruvchi tashkilotlar hamda boshqa xom-ashyo yetkazib beruvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish;
5. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
6. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
7. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;
8. Jihoz va uskunalarni qabul qilib olish va o'rnatish;
9. Boshlang'ich ta'lim maktabi binosini moslashtirish ishlarini yakunlash;
10. Xizmat ko'rsatishni boshlash.

Loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirishning birinchi yilida 75% dan xizmat ko'rsatish quvvatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni va loyihani amalga oshirishning 7-yiliga kelib xizmat ko'rsatish quvvatini kamida 90% ga yetkazishni rejalashtirishi zarur.

Yillar bo'yicha quvvatlarni o'zlashtirish koeffitsiyenti:

	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil	6-yil	7-yil
Quvvat o'zlashtirilishi % da	75%	75%	80%	80%	85%	85%	90%

8. HR REJASI



8. HR REJASI

Loyiha tashabbuskori har bir xodim loyihaning muvaffaqiyatiga to'liq hissa qo'shishi va shu bilan birga o'zining professional, shaxsiy o'sishi va ijtimoiy himoyalangan bo'lishi uchun barcha zarur amallarni bajarishi lozim. Mehnat haqi adolatli bo'lishiga va xodim hamda loyiha tashabbuskori o'rtasidagi munosabatlarning sheriklik tamoyillarini aks ettirishiga intilishi kerak.

Ushbu loyihada xodimlarning soni - 19 kishini, shu jumladan, ma'muriy va boshqaruv xodimlari - 1 kishini, ishchi xodimlar - 18 kishini tashkil qiladi.



(ming so'mda)

Xodimlar	Soni	Ish haqi	Oylik mehnatga haq to'lash	Ijtimoiy to'lov (12%)	Jami
1. Boshqaruv va adminstratsiya					
Direktor	1	10 000	10 000	1 200	11 200
Jami	1		10 000	1 200	11 200
2. Moliya bo'limi					
Buxgalter	1	6 000	2 000	240	2 240
Jami	1		2 000	240	2 240
3. O'quv ishlari bo'limi					
O'quv ishlari bo'limi boshlig'i	1	6 000	6 000	720	6 720
Jami	1		6 000	720	6 720
4. O'qituvchilar					
Matematika o'qituvchisi	5	8 000	40 000	4 800	44 800
Chet tili o'qituvchisi	2	6 000	12 000	1 440	13 440
Jismoniy tarbiya o'qituvchisi	2	4 000	4 000	480	4 480
Informatika o'qituvchisi	1	5 000	5 000	600	5 600
Jami	9		61 000	7 320	68 320
5. Ishchilar					
Qorovul	3	1 500	4 500	540	5 040
Farrosh	2	1 500	3 000	360	3 360
Oshpaz	1	4 000	4 000	480	4 480
Jami	6		11 500	1 380	12 880
Jami xodimlar	19		90 500	10 860	101 360
Yillik jami	19		1 086 000	130 320	1 216 320



9. MOLIVAVIY REJA



9. MOLIVAVIY REJA

